

INGLIZ TILINI BILISH DARAJASI BO'YICHA BILDIRISHNOMA

Hurmatli ota-ona/vasiy:

Ayni xat bilan biz farzandingiz, _____, talabalik identifikatsiya raqami _____, _____ kuni ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha WIDA tanlov testida ishtirok etdi va umumiy _____ bal to'pladi. Shu munosabat sababli farzandingiz ingliz tilini o'rganuvchi (EL) deya nomlanadi va Ingliz tili ikkinchi til sifatida nomi bilan keng tarqalgan Til ta'limi o'quv dasturi (LIEP) orqali qo'llab-quvvatlanadi.

LIEP maqsadi farzandingiz kundalik darslarni tushunishi, maktab ijtimoiy hayotida ishtirok etishi va yoshiga mos ravishda sinfdan o'tish va bitirish uchun akademik standartlarga javob berishiga yordam berishdir. LIEP'dan chiqish uchun farzandingiz Pensilvaniya ta'lim boshqarmasi qayta tasniflash mezonlariga javob berishi kerak. Filadelfiya maktab okrugi qaysi ingliz tilini o'rganuvchi o'quvchi qayta tasniflashga mos kelishini aniqlash uchun ingliz tili o'rganuvchisi o'zlashtirishini har yili tekshiradi. <https://www.education.pa.gov/> manzilidagi Pensilvaniya ta'lim boshqarmasi veb-sahifasida qayta tasniflash mezonini o'rganib chiqishingiz mumkin.

Federal **Har bir o'quvchi muvaffaqiyatga erishadi nomli Qonuniga (ESSA)** asosan mavjud bo'lgan hollarda ba'zi talabalarga qo'shimcha xizmatlar taqdim etilishi mumkin. Bu xizmatlarga repetitorlik, onlayn dasturlash yoki darslardan keyin va yoz davri dasturlari kiradi. EL o'quvchilarning ota-onalari bu xizmatlardan voz kechishlari mumkin va farzandlarining LIEP dasturi qismi bo'lgan ma'lum bir alohida o'quv dasturlaridan voz kechishlari mumkin. Agar xizmatdan voz kechishni istasangiz yoki LIEP haqida boshqa savollaringiz bo'lsa Ko'p tilli o'quv dasturi ofisi (OMCP) bilan uchrashuvni rejalashtirish uchun maktab direktori bilan bog'laning.

Farzandingiz akademik yutuqlarini qo'llab-quvvatlashda siz bilan ishlashni davom ettirishni kutib qolamiz.

Hurmat bilan,

Test administratori ismi-sharifi

Test administratori lavozimi

Test administratori imzosi

Sana

TEZ-TEZ SO'RALADIGAN SAVOLLAR

1. Farzandimning ingliz tilini bilish darajasi aniqlanishida qanday yillik baholashlar qo'llaniladi?

Farzandingizning ingliz tilini bilish darajasini aniqlashda har yili The ACCESS for ELs® baholashidan foydalaniladi. Bu baholash har o'quv yilining yanvar va fevral oralig'ida o'tkaziladi va u onlayn yoki yozma tarzda (qalam va qog'oz) qabul qilinadi. O'quvchilar 1.0 - 6.0 (6.0 eng yuqorisi) ball oladilar.

2. ACCESS for ELs® baholashida aynan nima sinaladi?

Farzandingizning o'qish, yozish, so'zlashish va tinglashda ingliz tilini bilish darajasi baholanadi. Bu sohalar odatda "domenlar" deb ataladi. Har bir domen baholanadi va birga olinganda umumiy ball to'planadi, bu yana farzandingizning ingliz tilini bilish darajasi deb ham nomlanadi. Har bir domenda ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, matematika va og'zaki va yozma adabiyotga oid savollar bo'ladi.

3. Farzandimning ACCESS for ELs® bo'yicha baholanishida yillik faoliyatidan xabardor bo'lamanni?

Ha, sizga har o'quv yili tugallanishida farzandingizning ACCESS for ELs® bo'yicha baholanishi haqida xabar beriladi. Hisobot maktabda saqlangan manzilingizga pochta orqali yuboriladi yoki farzandingizga sizga yetkazishi uchun topshiriladi.

4. O'quv yili davomida ingliz tilini bilish bo'yicha erishayotgan yutuqlari haqida qanday bilishim mumkin?

O'quv yili davomida farzandingizning akademik va ijtimoiy o'zlashtirishlari haqida oraliq hisobot olib turasiz. Ota-onalar/vasiylar har bir baholash davrining so'ngida Tabel anjumanlarida ishtirok etishlari tavsiya etiladi. O'quv yili davomida Filadelfiya maktab okrugi 3 ta Tabel anjumanini taqdim etadi. Sanalarni aniqlash uchun farzandingiz o'qituvchilari bilan uchrashing.

5. Farzandim qanchalar tez ingliz tilidan bilimi ortib, LIEP'dan chiqishi mumkin?

O'quvchilar ingliz tilini o'rganish tezligiga bir necha mezon ta'sir qiladi. Bunga o'quvchi yoshi, avvalgi ingliz tili tajribasi, o'quvchining ona tilidagi til va savodxonlik mahorati kiradi. Ingliz tilini deyarli yoki umuman bilmaydigan o'quvchilar uchun tilni olti yil ichida o'rganish maqsadga muvofiq. Ingliz tilini bilish darajasi yuqoriroq bo'lgan o'quvchilarda bunga tezroq erishiladi. Ammo har bir o'quvchining yutuqlari o'ziga xos va o'qituvchilar ularning ingliz tilini o'rganishlardagi yutuqlarini nazorat qilishda bir nechta mezonni hisobga oladi. Biz ota-onalar/vasiylarga Tabel anjumanlarida yoki farzanlari o'qituvchilari bilan uchrashuvni rejalashtirish orqali farzandlarining ingliz tilidagi yutuqlarini muhokama qilishni tavsiya qilamiz.

6. Farzandim maktabda muammolarga duch kelayotgan bo'lsa kim bilan uchrashishim kerak?

Farzandingizga oid har qanday masala farzandingiz o'qituvchisi bilan muhokama qilinishi lozim. O'qituvchi bo'lmagan holda maktab direktori bilan ham uchrashishingiz mumkin. Maktab direktorining aloqa ma'lumotlarini bilish uchun <https://www.philasd.org/directory/school-directory/> sahifasiga tashrif buyuring.

7. Farzandimning imkoniyati cheklangan bo'lsachi?

Farzandingizning imkoniyati cheklangan va u ingliz tilini o'rganuvchi bo'lsa, u holda farzandingizga ingliz tilini o'rganishda yordam beriladi va Maxsus ta'lim xizmatlari taqdim etiladi. Bu xizmatlar farzandingizning shaxsiy ta'lim dasturu yoki IEP'da hujjatlashtiriladi va har yili ingliz tili ikkinchi til sifatida (ESL) mutaxassisi bo'lgan IEP guruhi tomonidan ko'rib chiqiladi. Ota-onalar ham har yili o'tkaziladigan IEP hujjatlarni ko'rib chiqish uchrashuvlarida ishtirok etishlari kerak. Shuningdek, farzandingizning IEP guruhi yil davomida o'quv dasturlari farzandingiz ehtiyojlariga mos ravishda amalga oshirilishini ta'minlash uchun birgalikda ishlashadi. Filadelfiya maktab okrugining Maxsus ta'lim xizmatlari haqida batafsil o'rganish uchun maktab direktori bilan bog'laning yoki <https://www.philasd.org/specializedservices/> sahifasiga kiring.

8. Farzandim maktabi faoliyatida qanday qilib ishtirok etishim mumkin?

Farzandingiz ta'limida ishtirok etishning bir usuli maktab maslahat kengashi (SAC) orqali bo'lishi mumkin. Bu kengash ota-onalar, o'qituvchilar, o'quvchilar va jamoa a'zolaridan iborat bo'lib, maktab rahbariyatiga maktabni rivojlantirish rejasi va qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Ingliz tilini bilish darajasi cheklangan a'zolar uchun tarjima qilingan hujjatlar va tarjimonlik xizmatlari taqdim etiladi; SAC'da ishtirok etishda til to'sqinlik qilmasligi zarur. Shu bilan birga Okrug o'quv yili davomida shaharning turli qismlarida "Welcome Wagon" uchrashuvlarini ham o'tkazadi. Bu tadbirlar haqida batafsil ma'lumot olish uchun Oil ava jamiyat bilan aloqa (FACE) idorasining veb-sahifasiga tashrif buyuring: <https://www.philasd.org/face/>.

9. Qayerdan yanada ko'proq ma'lumot olishim mumkin?

Ingliz tilini o'rganuvchining ota-onasi bo'lish haqida batafsil axborot: <https://wida.wisc.edu/teach/learners/engagement>. Filadelfiya maktab okrugi Ko'p tili o'quv dasturi ofisi haqida axborot: <https://www.philasd.org/multilingual/>.